

ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2024 № 1 (24)



ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi
O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари
при Кабинете Министров Республики Узбекистан
Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan
Philosophical Society of Uzbekistan

**FALSAFA VA HAYOT
XALQARO JURNAL**

**ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ**

**PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL**

2024 № 1 (24)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.
Журнал выходит 4 раза в год.
The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Muxamedjanova Lalixon Ashuralievna

Zamonaviy jamiyatda ma'naviy begonalashuv va uni bartaraf etish yo'llari.....9-16

Nadirova Zoyira Payanovna

Intuitsiya kognitiv tafakkurda qaror qabul qilishimizga ko'maklashuvchi omil sifatida.....17-20

TA'LIM VA FAN FALSAFASI

Tulenova Gulmira Jandarovna

Ta'lim tizimining samaradorligi va sifatini oshirishning asosiy omillari.....21-29

Abdullayev Temur Bobir o'g'li

Tafakkur uslubi transformatsiyasida ongning falsafiy xususiyatlari30-35

Usmanov Muhridin Abdimuratovich

Idrokning davr va obrazlarni tasavvur qilishdagi roli36-43

TARIX FALSAFASI VA FALSAFA TARIXI

Arziqulov Elboy Azim o'g'li

O'zbek xalq eposlaridagi ma'naviy qadriyatlarni barkamol avlod ma'naviy-ma'rifiy kamolotiga ta'sirini oshirishning zamonaviy usullari va vositalari.....44-50

Xidirov Mustafu Toyirqulovich

Ilmiy maktablarning shakllanishi va ularning ilmiy faoliyatni tashkil etishdagi amaliy ahamiyati51-58

Qodirov Javlonbek Abdusattor o'g'li

Daniel Dennetning ong nazariyasi: keng qamrovli tahlil59-67

DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

Nishanova Ozoda Djalolitdinovna


Go'zallik kategoriyasi va uning o'zbek etnomadaniyatidagi o'rni68-76

Ruziyeva Ruxsora Xodiyevna

Vaqtning qiymati – inson umrining eng oliy qadriyati.....77-83

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI / ФИЛОСОФИЯ ПОЛИТИКИ И ОБЩЕСТВА / PHILOSOPHY OF POLITICS AND SOCIETY

UDK: 316.74:2

 10.5281/zenodo.12611613

Muxamedjanova Lalixon Ashuralieвна

O‘zbekiston Milliy universiteti Etika va estetika kafedrası professorı, f.f.n

E-mail: lalixon@list.ru, lalixonm@gmail.com

(Toshkent, O‘zbekiston)

ZAMONAVIY JAMIYATDA MA’NAVIY BEGONALASHUV VA UNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Annotatsiya. Bu maqola zamonaviy jamiyatda kuzatilayotgan ma’naviy begonalashuv muammosini tahlil qiladi va ushbu muammoni hal qilish uchun amaliy yechimlarni taklif qiladi. Begonalashuv jarayoni zamonaviy falsafaning eng “o‘tkir” va ziddiyatli muammolaridan biri hisoblanadi. Achinarlisi shundaki, hech bir falsafiy tushuncha butun insoniyatni bunchalik keng miqyosda qamrab olmaganı, xudbinlik, manfaatparastlik, moddiylikka intilish, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar me‘yorlashib, ommalashib, ayni paytda tobora kuchayib bormoqda. Ma’naviy begonalashuv – jamiyatning madaniy va ma’naviy qadriyatlaridan uzoqlashishi, individual va ijtimoiy hayotda asosiy ma’naviy bag‘rikenglik va an‘analarni yo‘qotishi holatidir. Bu holat zamonaviy texnologiyalarning tez sur‘atlar bilan rivojlanishi, globallashuv va madaniy diversifikatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Maqolada ma’naviy begonalashuvning asosiy sabablari va uning jamiyatga ta’siri, shuningdek, bu muammoga qarshi kurashishning samarali usullari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy begonalashuv, zamonaviy jamiyat, madaniy diversifikatsiya, globallashuv, ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiy hayot, adolat, madaniy o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlari, texnologiyalarning ta’siri.

ДУХОВНОЕ ОТЧУЖДЕНИЕ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ И ПУТИ ЕГО УСТРАНЕНИЯ

Аннотация. В данной статье анализируется проблема духовного отчуждения, наблюдаемая в современном обществе, и предлагаются практические пути решения этой проблемы. Процесс отчуждения — одна из самых «острых» и противоречивых проблем современной философии. Жаль, что ни одна философская концепция не охватывает все человечество в таком масштабе, эгоизм, стремление к материализму, взаимоотношения между людьми нормализуются и популяризируются и в то же время становятся все более могущественными. Духовное отчуждение – это состояние отчуждения от культурных и духовных ценностей общества, утрата базовой духовной

толерантности и традиций в индивидуальной и общественной жизни. Эта ситуация тесно связана с быстрым развитием современных технологий, процессами глобализации и культурной диверсификации. В статье рассматриваются основные причины духовного отчуждения и его влияние на общество, а также эффективные пути борьбы с этой проблемой.

Ключевые слова: духовное отчуждение, современное общество, культурная диверсификация, глобализация, духовные ценности, общественная жизнь, справедливость, культурные изменения, процессы глобализации, влияние технологий.

SPIRITUAL ALIENATION IN MODERN SOCIETY AND WAYS TO ELIMINATE IT

Annotation. This article analyzes the problem of spiritual alienation observed in modern society and offers practical solutions to solve this problem. The process of alienation is one of the most "sharp" and controversial problems of modern philosophy. It is a pity that no philosophical concept covers all mankind on such a large scale, selfishness, self-interest, pursuit of materiality, and the mutual relations between people are becoming standardized, popularized and at the same time increasing more and more. Spiritual alienation is a state of alienation from cultural and spiritual values of society, loss of basic spiritual tolerance and traditions in individual and social life. This situation is closely related to the rapid development of modern technologies, processes of globalization and cultural diversification. The article discusses the main causes of spiritual alienation and its impact on society, as well as effective ways to combat this problem.

Key words: spiritual alienation, modern society, cultural diversification, globalization, spiritual values, social life, justice, cultural changes, globalization processes, impact of technologies.

KIRISH

Begonalashuv muammosi ijtimoiy hayotning barcha ko‘rinishlaridan yiroqlashib va aksincha pulga, mol-dunyoga topinish darajasigacha yetib bormoqda. Fikrimizni ijtimoiy sohadan insoniyatning yashash sharti bo‘lgan tabiatga yo‘naltirmoqchimiz. Kishilik jamiyati vujudga kelganidan buyon insoniyat ikki muammo bilan har doim to‘qnashadi. Birinchisi – tabiat kuchlarini bo‘ysundirish, turli asbob-anjom va qurol-yarog‘larni tayyorlash hamda tabiatni foydali hayvon va o‘simlik turlarini yaratishga “undash”da asqatadigan zarur bilim va malakani egallash bilan bog‘liq muammolardir. Bu muammo fan va texnika yordamida hal qilinmoqda. Tajribadan ayonki, mazkur muammo samarali yechimi tor sohaga ixtisoslashgan malakali mutaxassislar tayyorlash bilan bog‘liqdir. Ko‘pchilik yaxshi anglab yetmaganidan, ahamiyatsiz ko‘rinadigan ikkinchi muammo – inson zotining tabiiy mayl va qiziqishlarini qanday nazorat qilishga daxldor masaladir.

Begonalashuv to‘g‘risidagi ilk qarashlar, yondashuvlar eng qadimgi davr faylasuflari bo‘lmish Suqrot, Aflotun, Arastu, Demokritning inson va jamiyat

to'g'risidagi fikrlarida uchratish mumkin. Xususan, Aflotun ta'limotiga ko'ra, kishilik jamiyatining va davlat tuzumining buzilishiga sabab, moddiy manfaatdorlikning hukmronlik qilishi va uning kishilar axloqiga ta'sir etishidir, yana bir yunon mutafakkiri Arastu qarashlarida bu muammoga yondashuv o'ziga xosdir. Arastu antik jamiyatning nazaryotchisi bo'lganligi uchun boylikka ehtiyoj nuqtai nazaridan qaraydi. Boy bo'lish uchun boylikka ega bo'lish emas, balki undan foydalanish demakdir. Haqiqiy farovon hayot uchun cheksiz boylik zarur emas. To'plangan boylik ma'lum maqsadga xizmat qilsa, buning oqibatida davlatga va oilaga foydali, inson hayotiga zarur narsalarni to'plashni nazarda tutadi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Begonalashuv tushunchasining atama sifatida vujudga kelishi, XVII-XVIII asrlarda "ijtimoiy shartnoma" tarafdorlari Tomas Gobbs, Jon Lokk, Per Gassendi, Jan Jak Russo va boshqalar atroflicha o'rganishdi. Zamonaviy jamiyatda kuzatilayotgan ma'naviy begonalashuv muammosi ko'p qirrali va murakkabdir. Bu muammoni tushunish va unga yechim topish uchun, avvalo, uning sabablarini aniqlash va keyin amaliy yechimlar taklif qilish zarur. Ma'naviy begonalashuvning sabablari: globallasuv va madaniy o'zgarishlar; globallasuv jarayoni dunyo miqyosida turli madaniyatlar va qadriyatlarning aralashuviga olib keldi. Bu jarayon ba'zan mahalliy madaniy an'analar va qadriyatlarning susayishiga va ularning global madaniyat tomonidan yutilib yuborilishiga sabab bo'ladi. Masalan: ko'plab yoshlar o'z milliy musiqasi va an'alaridan ko'ra, global pop-madaniyatga ko'proq qiziqish bildirishmoqda.

Zamonaviy jamiyat ilmiy-texnik taraqqiyot, ijtimoiy hayotning tezlashishi bilan bog'liq bir qator o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Odamlar shaharlarda to'plangan va bu yerda shaxslararo muloqot, o'zaro tushunish va harakatlarni muvofiqlashtirishni kuchaytirish kerakdek tuyuladi. Ijtimoiy hayotni farqlash odamlarni bir-biridan tobora ko'proq ajratib turadi, natijada shaxslararo begonalashish ortadi. Bundan tashqari, ijtimoiy hayotning jadal sur'atlari begonalashuvning ko'payishiga yordam beradi, shuning uchun odamlar har doim ham ijtimoiy voqealarni kuzatib borishga imkon topa olmayaptilar. Hayotning asosi sifatida insonni mehnatdan begonalashtirish tobora ortib bormoqda. Yangi axborot dunyosining rivojlanishi ham begonalashtirish muammosini bartaraf etmaydi, aksincha, uni yomonlashtirishi mumkin.

Fransuz faylasufi Per Gassendi ijtimoiy shartnoma nazariyasiga tanqidiy yondashib ijtimoiy muhitda insonlar o'rtasidagi munosabatlarda uning o'rnini va ahamiyati ijobiy natijaga olib kelishini shubha ostiga oladi. Uning eng mashhur asarlaridan biri bu shubhasiz "Falsafa majmuasi" (1658) deb nomlanib bu asarda falsafani uch qismga bo'ldi: 1) logika 2) fizika 3) etika. Ushbu asarda Gassendi cherkovning tarkidunyochilik axloqiga qarshi chiqdi va har qanday mamnuniyat o'z-o'zicha saodatdir, har qanday fazilat – qanchalik huzur-halovat baxsh etsa, shunchalik saodatlidir, degan fikrni tasdiqladi.

Gassendi mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarishning mavjud usulini o'zgartirish zarurligini ta'kidlab ko'rsatgan edi. U Yevropada ishlab chiqarish munosabatlari rivojlanish bosqichiga kirib borayotgan bir paytda quyidagi fikrlarni aytib o'tadi, ishlab chiqarish vositalariga jamoaviy egalik qilishga va mehnatni "mehnat qilmagan kishi ovqat yemaydi" prinsipiga muvofiq oqilona tashkil etishga asoslangan ishlab chiqarish lozim ekanligini bayon etadi.

Spinozaning yer yuzida adolat to'g'risidagi g'oyalari insonning o'zini topishi va haqiqiy inson bo'lish to'g'risidagi fikrlarini aks ettirgan. Faylasuf tasdiqlashicha, insonlar o'z xudbinligi va o'zaro ziddiyatlariga qaramasdan bir-birlari bilan birlashmalarga kirishadilar. «Ammo ba'zan bo'ladi, - deb yozadi Spinoza "Etika" asarida odamlar aql bilan yashasalarda ammo ularning katta qismi bir-biridan nafratlanadi va qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Hayvonot dunyosi kabi ko'pgina hollarda ular bir xil hayot kechiradilar va boshqarish ma'lum bir shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Ish faoliyatda insonlarning birga harakat qilishi zarardan ko'ra ko'proq qulaylik tug'diradi [Спиноза Б. 1957].

Spinozaning fikricha «...o'zaro yordam shaxsiy ehtiyojlarni oson qanoatlantirishi mumkin va faqat birlashgan kuchgina xavflardan, har yondagi dahshatlardan saqlashi mumkin.». B.Spinoza ideal jamiyat deganda, uning har bir a'zosi yagona idrok asosida boshqarishni va barchaning umumiy qarori asosida yashashni tushungan [Спиноза Б. 1957].

Gobbsning «Leviafan, yoki davlat cherkov va fuqarolik hokimiyati va shakli materiya nomli ishidan yuz yil o'tib fransuz faylasufi Jan-Jak Russo "Umumiy kelishuv yoki siyosiy huquqning tamoyillari to'g'risida" [Локк Дж, 2020] asar yozgan. Shuni qayd etish kerakki, Russo begonalashuv masalasini o'zidan oldingi hamkasblaridan keng miqyosda o'rgandi. Uning begonalashuv konsepsiyasida yetakchi o'rinlarni tabiat tushunchasi jamiyat va davlat mohiyati egallagan.

Hozirgi zamon sivilizatsiyasining ma'naviy-madaniy inqiroziga bag'ishlangan konsepsiyalar ko'paymoqda. Globallashuv va madaniy o'zgarishlar murakkab va ko'p o'lchamli jarayonlardir, bular zamonaviy jamiyatlarning ma'naviy hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Keling, ushbu ikki jihatni batafsilroq muhokama qilamiz. Globallashuv – bu dunyo bo'ylab mamlakatlar, iqtisodiyotlar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va integratsiyaning kuchayishidir. Bu jarayon quyidagi asosiy omillar tufayli sodir bo'ladi: iqtisodiy globallashuv; xalqaro savdo va investitsiyalar orqali davlatlarning iqtisodiy integratsiyasi. Bu iqtisodiy aloqalar mahsulotlar, xizmatlar va ishchi kuchining chegaralarsiz harakatini ta'minlaydi. Texnologik yangilanishlar: internet va mobil aloqa kabi texnologiyalarning rivojlanishi odamlarning bir-birlari bilan aloqa qilishi va ma'lumot almashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Madaniy almashinuv: madaniyatlararo almashinuv globallashuvning muhim qismi bo'lib, kino, musiqa, san'at va adabiyot orqali amalga oshiriladi. Madaniy almashinuv – bu turli madaniyatlar o'rtasida fikrlar, qadriyatlar, an'analar va san'at asarlarining o'zaro ta'siri va o'zlashtirilishi jarayonidir. Bu jarayon insonlarning

bir-birlari bilan muloqoti, global sayohatlar, madaniy mahsulotlarning xalqaro savdosi va axborot texnologiyalarining rivojlanishi tufayli sodir bo‘ladi. Madaniy almashinuvning asosiy jihatlari quyidagicha:

1. San‘at va adabiyot orqali almashinuv. Adabiyot: turli mamlakatlarning adabiyoti o‘zaro ta‘sir ko‘rsatadi, masalan, tarjima asarlar va xalqaro adabiy mukofotlar bunga misol bo‘la oladi. San‘at: rassomchilik, haykaltaroshlik va boshqa san‘at shakllari orqali turli madaniyatlar o‘z ijodlarini baham ko‘radilar.

2. Musiqa va raqs. Musiqa: turli madaniyatlarning musiqiy an‘analari bir-biriga ta‘sir ko‘rsatadi, natijada yangi musiqiy yo‘nalishlar va janrlar paydo bo‘ladi. Raqs: xalqaro raqs festivallari va turli mamlakatlarning raqs an‘analari o‘rtasidagi almashinuv.

3. Ovqatlanish madaniyati. Ovqatlar: turli mamlakatlarning ovqatlari va taom tayyorlash uslublari o‘zaro almashinuvga uchraydi, natijada yangi taomlar va ta‘m kombinatsiyalari paydo bo‘ladi.

4. Tillar va Aloqa. Tillar: turli tillarning o‘zaro ta‘siri orqali yangi so‘zlar, iboralar va grammatik tuzilmalar paydo bo‘lishi mumkin. Aloqa: madaniyatlararo aloqa orqali turli madaniyatlarning qadriyatlarini va an‘analari haqida bilim almashiladi.

5. Texnologiya va media. Media: televidenie, kino, internet va boshqa media vositalari orqali turli madaniyatlarning mahsulotlari keng tarqaladi. Texnologiya: zamonaviy texnologiyalar madaniy ma‘lumotlarning tez va oson almashilishiga imkon beradi.

Madaniy almashinuv insonlarning dunyoqarashini kengaytiradi, yangi ijodiy g‘oyalarni rag‘batlantiradi va madaniyatlararo tushunishni oshiradi. Biroq, bu jarayon mahalliy madaniy an‘analarga ham tahdid solishi mumkin, shuning uchun madaniy almashinuvni boshqarishda muvozanatni saqlash muhimdir.

Madaniy o‘zgarishlar globallashuv jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi: Madaniy o‘zgarishlar – bu insoniyat tarixi davomida muntazam sodir bo‘lib turadigan jarayonlar bo‘lib, ular jamiyatning qadriyatlarini, an‘analari, normalari va san‘atida o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Bu o‘zgarishlar turli sabablarga ko‘ra, shu jumladan iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va siyosiy omillar tufayli yuzaga keladi. Keltirilgan misollar orqali madaniy o‘zgarishlarni batafsil ko‘rib chiqamiz.

Iqtisodiy taraqqiyot va globallashuv. Iqtisodiy rivojlanish: iqtisodiy o‘sish va rivojlanish jamiyatlarning madaniy tuzilishini o‘zgartirishi mumkin. Masalan, sanoat inqilobi Yevropada madaniy va ijtimoiy tuzilmalarni tubdan o‘zgartirgan. Globallashuv tufayli turli mamlakatlarning madaniyatlarini o‘zaro ta‘sir qilishi va yangi madaniy elementlarning paydo bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Texnologik yangilanishlar. Axborot texnologiyalari: internet va ijtimoiy tarmoqlarning taraqqiyoti yangi madaniy tendensiyalar va an‘analarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Media: televidenie, radio va internet madaniyatga kirib kelgan yangi axborot va ko‘ngilochar kontent orqali madaniyatni shakllantiradi.

Ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar. Demografik o'zgarishlar: ko'chib yurish va migratsiya madaniy o'zgarishlarning asosiy omillaridan biridir. Muhojirlar o'zlarining madaniy meroslarini yangi joylarga olib kirishadi.

Siyosiy o'zgarishlar: Inqiloblar, hukumatlarning almashinuvi yoki siyosiy islohotlar madaniy qadriyatlar va an'analarga ta'sir qiladi.

Madaniy diversifikatsiya: turli madaniyatlarning aralashuvi yangi madaniy identifikatorlarni shakllantiradi. Madaniy diversifikatsiya – bu turli madaniy guruhlar, an'analar va qadriyatlarining mavjudligi va o'zaro ta'sirlashuvi jarayonidir, bu jamiyatlarning madaniy boyligini oshiradi va ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy afzalliklarni taqdim etadi. Madaniy diversifikatsiyaning asosiy jihatlari quyidagilardir:

1. Madaniy guruhlarining xilma-xilligi.

Etnik va milliy guruhlar: madaniy diversifikatsiya, turli etnik va milliy guruhlarining birgalikdagi mavjudligini anglatadi. Bu guruhlar o'zlarining tillari, urf-odatlar va an'analari bilan jamiyatning madaniy manzarasiga hissa qo'shadilar.

Madaniy almashinuv: turli madaniyatlarning o'zaro ta'sirlashuvi orqali yangi madaniy an'analar va qadriyatlar paydo bo'ladi.

2. Madaniy an'analar va qadriyatlar. Madaniy boyluk: har xil madaniyatlarning an'analari va qadriyatlari bir-biri bilan uyg'unlashganda, jamiyatning umumiy madaniy boyligi ortadi.

O'zaro ta'sirlashuv: madaniy guruhlar o'zaro ta'sirlashuv orqali bir-birlaridan o'rganib, madaniy qadriyatlarini baham ko'rishadi.

3. Ijtimoiy va iqtisodiy foyda.

Ijtimoiy barqarorlik: madaniy diversifikatsiya ijtimoiy barqarorlik va o'zaro hurmatni rag'batlantiradi. Turli madaniyatlarning vakillari bir-birlarining farqligini qabul qilib, o'zaro muloqotni rivojlantiradilar. Iqtisodiy rivojlanish: madaniy diversifikatsiya, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiradi, chunki u ko'plab ijodiy g'oyalar va yangi biznes imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

4. Ta'lim va madaniyat.

Ta'limda madaniy diversifikatsiya: ta'lim muassasalarida madaniy diversifikatsiyani qo'llab-quvvatlash, yoshlarni turli madaniy fonlarga e'tiborli va hurmatli bo'lishga o'rgatadi. Madaniy tadqiqotlar: madaniy tadqiqotlar orqali turli madaniyatlar haqida tushunchalarni oshirish va ularni qadrlash mumkin.

Madaniy diversifikatsiya, jamiyatlarning madaniy boyligini va ijtimoiy hamkorligini oshirishga yordam beradi. U ijtimoiy integratsiya, madaniy anglashuv va o'zaro hurmatni rag'batlantiradi, shuningdek, ijodiy va iqtisodiy rivojlanish uchun zamin yaratadi. Biroq, madaniy diversifikatsiyani boshqarishda muvozanatni topish muhimdir, bu orqali madaniy xilma-xillikni saqlab qolish va har bir madaniyatning o'ziga xosliklarini hurmat qilish mumkin.

An'analarning susayishi: ko'pincha global madaniyatning ta'siri ostida mahalliy an'analar va urf-odatlar susayishi mumkin.

Madaniy konvergensiya: madaniy konvergensiya; global madaniyatlarning bir-biriga o'xshashligi mahalliy madaniy identifikatorlarning yo'qolishiga olib

kelishi mumkin. Jamiyatlarning madaniy tarkibi ko'proq xilma-xillashadi, bunda turli madaniyatlarning elementlari bir-birini boyitadi. Global media madaniyatlarning bir-biriga o'xshashligini kuchaytiradi, bu esa mahalliy madaniy identifikatorlarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Texnologiya va ommaviy axborot vositalari: zamonaviy texnologiyalar va ommaviy axborot vositalari insonlarning dunyoqarashini kengaytirib, yangi ma'naviy qadriyatlarni olib kiradi. Bu o'zgarishlar ba'zan mahalliy ma'naviy qadriyatlarga tahdid soladi. Masalan: internet orqali tarqalayotgan global madaniy trendlar mahalliy an'analarni chetga surib, ko'pchilik yoshlarni begonalashtirishiga sabab bo'lmoqda.

Ta'lim va tarbiyada an'anaviy qadriyatlarning yo'qolishi: ta'lim tizimidagi ma'naviy va axloqiy tarbiyaga yetarli e'tibor berilmasligi ham muhim omildir. Masalan: maktablarda va oliy ta'lim tizimlarida ma'naviy va axloqiy tarbiya darslarining kamligi yoki samarasizligi.

Amaliy yechimlar: madaniy merosni asrash va targ'ib qilish: Mahalliy madaniy merosni asrash va uni turli yoshdagi odamlar orasida targ'ib qilish. Bu maqsadda festivallar, ko'rgazmalar va madaniy tadbirlar tashkil etish mumkin.

Ta'lim tizimida ma'naviy qadriyatlarga urg'u berish: Maktab va oliy ta'lim dasturlariga ma'naviy va axloqiy tarbiya darslarini kiritish. Shuningdek, o'qituvchilarni ushbu masalalar bo'yicha tayyorlash.

Ommaviy madaniyat va axborot vositalari orqali ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish: Televidenie, radio va internet orqali ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish, milliy an'analar va qadriyatlarni ommalashtirish.

Jamoatchilik bilan ishlash va muloqotni kuchaytirish: jamoatchilikni ma'naviy begonalashuv muammosiga jalb qilish, muloqot va munozaralar orqali ularning xabardorligini oshirish.

Ma'naviy begonalashuv muammosiga qarshi kurashish uchun hamma sohalarni birlashtiradigan yondashuv zarur. Bu muammoni hal qilishda davlat, jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalari va oilalarning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Globalashuv va madaniy o'zgarishlar zamonaviy jamiyatlar uchun ham foydali, ham qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bir tomondan, ular bizni turli madaniyatlar va yangi g'oyalar bilan tanishtiradi, ammo boshqa tomondan, mahalliy madaniy qadriyatlar va an'analarni saqlab qolishga tahdid soladi. Shuning uchun, madaniy o'zgarishlarni boshqarish va ularning salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun muvozanatli va to'liq o'ylangan yondashuv zarur.

Ma'naviy begonalashuvga qarshi samarali kurashish uchun quyidagi amaliy chora-tadbirlar taklif etiladi:

Madaniy merosni asrash va uni avloddan-avlodga o'tkazish: jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish uchun madaniy merosni himoya qilish va uni yosh avlodga ta'lim berish orqali o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim tizimida ma'naviyatga e'tibor berish: maktab va oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy va axloqiy tarbiyaga ko'proq e'tibor qaratish, o'quv dasturlariga milliy madaniyat va an'analarni kiritish.

Ommaviy madaniyat va axborot vositalarida ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish: televidenie, radio va internet orqali ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish, milliy madaniyat va an'analarni ommalashtirish.

Jamoatchilik bilan ishlash: mahalla va jamoat tashkilotlari orqali turli madaniy va ma'naviy tadbirlarni tashkil etish, jamoatchilikning ma'naviy begonalashuvga bo'lgan tushunchasini oshirish.

BIBLIOGRAFIYA

1. Спиноза Б. Этика. -М.: Госполитздат, 1957. -С. 549.
2. Спиноза Б. Этика. -М.: Госполитздат, 1957. -С. 551.
3. Локк Джон. Два трактата о правлении. -М.: 2020.
4. <https://www.reformed.org.ua/2/86/26/Locke>

**FALSAFA VA HAYOT//
ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ//
PHILOSOPHY AND LIFE**

Tahririyat manzili	Адрес редакции	Editors Address
100085, O'zbekiston Toshkent, Sergeli tumani, Mehrigiyo ko'chasi -6	100085, Узбекистан, Ташкент Сергелинский район, Улица Мехригиё- 6	100085, Uzbekistan Tashkent Sergeli, Mehrigiyo street-6

Veb-sayt: <http://tadqiqot.uz/wp-content/uploads/2018/03/01/03pdf>
www.tadqiqot.uz ; E-mail: falsafa-h@mail.ru, Shermuhamedova_n@mail.ru
Telefon: (+99890) 358-62-70

MUASSISLAR:	УЧРЕДИТЕЛИ:	FOUNDERS:
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Imom al Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O'zbekiston falsafa jamiyati OOO tadqiqot	Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека Международный научно- исследовательский центр Имом ал Бухори при кабинете Министров Республики Узбекистан Философское общество Узбекистана OOO tadqiqot	The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek International Research Center Imom al Bukhori at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan Philosophical Society of Uzbekistan OOO tadqiqot

Tahririyat sifatli maqolalarni tanlash huquqini saqlagan holda taqdim etilayotgan materiallarning aniqligiga javob bermaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Редакция оставляет за собой право отбора качественных статей и не несет ответственности за достоверность информации в представленных материалах.

The editors reserve the right to select quality articles and is not responsible for the reliability of the information in the submissions.

Подписано для сайта
Тошкент шаҳри

Заказ №.